

XOTIN-QIZLARNI HUQUQIY SAVODXONLIGI JAMIYAT TARRAQQIYOTINING MUHIM KAFOLATI

Obidova Guli Aziz qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti

1- bosqich talabasi

e-mail:obidovaquli580@gmail.com

shaxsiy raqam:(90-096-96-08)

Annotatsiya: *Ushbu maqola huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarini, jadalik bilan rivojlanayotgan davlatimizning o`zining asosiy maqsadi qilib belgilagan demokratik va huquqiy davlatni barpo etish, bu boradagi vazifalarni jamiyatning asosiy bo`g`ini bo`lmish oiladan, asosan, xotin- qizlarimizning huquqiy salohiyatini oshirish, ularga nisbatan jinoyat sodir etilishining oldini olishda oiladagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni o`rnini yanada mustahkamlash, ularga qonuniy yechimiga qaratilgan taklif va xulosalar muhokama etilgan.*

Kalit so`zlar: *huquqiy salohiyat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy negilizm, xotin-qizlar huquqlari, gender tushunchasi*

Аннотация: *В данной статье основное внимание уделяется понятиям правосознания и правовой культуры, построению демократического и правового государства, что является основной целью нашей быстро развивающейся страны, а задачи в этом отношении исходят от семьи, которая является основным звеном общества, главным образом для повышения правового потенциала наших женщин и девушек., обсуждались предложения и выводы, направленные на дальнейшее усиление роли правосознания и правовой культуры в семье в предупреждении преступлений против них, правовые пути их решения.*

Ключевые слова: *правоспособность, правосознание, правовая культура, правовой нигилизм, права женщин и девочек, концепция гендера.*

Annotation: *This article focuses on the concepts of legal consciousness and legal culture, the establishment of a democratic and legal state, which is the main goal of our rapidly developing country, and the tasks in this regard are from the family, which is the main link of society, mainly to increase the legal potential of our women and girls. , suggestions and conclusions aimed at further strengthening the role of legal consciousness and legal culture in the family in preventing crimes against them, legal solutions to them were discussed.*

Key words: *legal capacity, legal consciousness, legal culture, legal nihilism, rights of women and girls, concept of gender.*

KIRISH

Yurtimiz mustaqillikni qo`lga kiritishidan so`ng o`z oldiga demokratik huquqiy davlat qurish prinsipini, bu prinsipni amalga oshirish maqsadida qator chora tadbirlar qo`lladi: fuqarolik jamiyatini barpo etish, aholi o`rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish, fuqarolarni manfaatlarini himoya qilish va hokazolar... Ammo hozirga jamiyatimizda asosiy muammo sifatida xotin-qizlarni sha`ni, qadr-qimmatini kamsitilishi (deskriminatsiyalanishi), huquqlari cheklanishini oldini olish, ular orasida huquqiy savodxonlikni rivojlantirish borasida tugallanmagan bir necha islohotlar qolganiga yaqqol guvohi bo`lamiz. Bu borasida qator hujjatlar qabul qilinishi bilan bir qatorda, ularni amaliyotda tatbiq etishni ta`minlash maqsadida mamlakatda turli huquqiy institutlar tashkil etilmoqda ammo yillar davomida odat bo`lib kelgan bu kabi muamollarning yechimini jamiyatni tashkil etilishining asosiy bo`g`ini hisoblangan oiladan boshlash foydadan holi bo`lmas edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O`zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan boshlab oila institutini rivojlantirishga, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish bilan bog`liq islohotlar ijrosiga davlat miqiyosda katta e`tibor qaratilmoqda. Jamiyatimizning turli sohalarida ularning faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Diyorimizda ayolga bo`lgan munosabat o`z tarixiy ildizlariga ega, ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo`lishga intilishgan. Xususan, Davlatimiz Bosh Qomusi hisoblangan Konstitutsiyamizning 58-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta`minlaydi”. Asosiy qonunimiz bo`lgan bu hujjatda belgilanib qo`yilgani shundan dalolat beradiki, ayollarimiz erkin huquqliklari davlat miqiyosida ta`minlanadi va himoya qilinadi. Bundan tashqari “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to`g`risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo`ravonlikdan himoya qilish to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasining Qonunlari qabul qilingandan so`ng birmuncha ishlar amalga oshirildi. Xotin-qizlarning huquqiy madaniyati kun sayin takomillashib boryapti.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlaganlaridek, “Biz shaxs va oilaning huquq va manfaatlarini himoya qilish, aholining huquqiy madaniyatini va ongini oshirish vazifasini o`zimiz uchun maqsad qilib qo`yish bilan birga, bu masalani tom ma`nodagi demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning muhim sharti sifatida belgilab oldik. Buning uchun, avvalo, har bir shaxs o`zining oilasining taqdiri va ertangi kuni uchun rivojlanish yo`lida g`ov bo`lib turgan to`siqlarga qarshi qat`iy kurash olib borishi kerak”⁴

Ma`lumki, insonning eng pokiza tuyg`ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari oila bag`rida hamda oilaviy munosabatlar natijasida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va

⁴ Islom Karimov – “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” 2B-36 .2008-yil.

dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr- oqibat, or-nomus kabi muqaddas tushunchalarning poydevori va ustuni oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Ayniqsa, qadimdan qolib kelayatgan tariximizga ham nazar solsak bola tarbiyasi, asosan, ayollarimiz, onalarimiz zimmasiga yuklangan bo'lib bolaning tarbiyasi, ilmi bo'lishi ular bergan tarbiya asosida paydo bo'lib yuksaladi.⁵ Shu paytda bir savol tug'iladi? “ Bugungi kundagi yoshlarimiz o'rtasida ko'p uchrayatgan turli tuman jinoyatlar, mayda bezoriliklar shuni asosida kelib chiqyaptimi? “ Bu savolga shu yo'sinda javob bersak maqsadga muvofiq bo'lardi, “ Jamiyatimizdagi uchrayatgan muamoli vaziyatlar, huquqbuzarliklar xalqimizning huquqiy ongi va huquqiy saloxiyati to'laqonli rivojlanmaganidan dalolat beradi, ” . Bu ko'rsatkichlarni kamaytirish uchun qilinayotgan har bir choralar eng avvalo, oila institutiga yuzlangan holda undagi huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilayotganini inkor etib bilmaymiz.

Bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9 yanvar kunidagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi PF-5618-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent shahar IIBB boshlig'i bilan Toshkent shahar hokimi tomonidan 2019 yilning 20 may kuni 27/1-375-04-306-sonli “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va aholi o'rtasida huquqiy-profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish yuzasidan” hamkorlikda qo'shma ko'rsatmasi ishlab chiqilgan bo'lib, bunda mahalla guzarlari, yirik bozorlarning ma'muriy binosida “Huquqiy maslahatxona” tashkil etilishi belgilanligi munosabati bilan Toshkent shahri hududidagi mahallalar, aholi gavjum joylar va bozor hududlarida jami 89 ta huquqiy maslahatxonalar tashkil etildi.

Shu bilan birga Inson huquqlarini demaklashtirish muamollari ilmiy zehn, xalqning tarixan tarkib topgan ana'analari, urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlarini inobatga olgan holda aholining huquqlarini kafolatlari ta'minlash bo'yicha tegishli organlarga vazifalar taqsimlab berildi.

Xotin- qizlarni huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularni davlat organlarida faoliyat olib borish erkinliklarini yaratish, ayollarning oiladagi o'rnini kuchaytirish, jamiyatimizdagi gender diskriminatsiyaga chek qo'yish va shu kabi boshqa muamoga sabab bo'layotgan masalalar bo'yicha keng ko'lamlil ishlar olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishiga alohida e'tibor qaratib kelinadi. Bu jihatlar xalqaro miqyosda ham keng e'tirof etilmoqda. Shu jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni xalqaro doiralarda ham targ'ib qilib, butun dunyo jamoatchiligi diqqat-e'tiborini ayni masalaga qaratib keladi.

Davlatimiz rahbari 2023-yil 20- sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida ham milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad – oilalar mustahkamligini, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta'minlashdan

⁵ Islom Karimov - – “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” 3B-52. 2008-yil.

iborat ekaniga urg'u berib, jumladan, "Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Xotin-qizlar" tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor ekanimizni ta'kidladi. Shuningdek, kelgusi yili O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o'tkazishni taklif qildi.

Shu o'rinda qayd etish joizki, mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash borasida ilg'or tajribalar o'zlashtirilib, ijobiy natijalarga erishilmoqda. Pirovardida, o'tgan yili oliygozlarga qabul qilingan talabalarning 49 foizini qizlar tashkil etdi.

Gap jamiyatda xotin-qizlarning faolligini oshirish haqida ketar ekan, bu yo'lda e'tirofli jihatlar ko'p. Avvalo, shuni aytish mumkinki, o'tgan yillarda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularga munosib sharoitlar yaratish yo'lidagi chora-tadbirlar samaradorligini kuchaytirish maqsadida turli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Bu boradagi islohotlarning navbatdagi bosqichi sifatida davlat fuqarolik xizmatida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlashga kirishilgani ham e'tiborga molikdir.

Bugun oldimizda katta maqsadlar turibdi. Ular orasida esa jamiyatimizning yangi qiyofasini shakllantirish vazifasi birlamchi sanaladi. Bu, albatta, xotin-qizlarga qaratilayotgan e'tibor va ularga yaratib berilayotgan munosib turmush sharoitida o'z aksini topadi.

Shu maqsadda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va yaqinda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham bir qator chora-tadbirlar belgilangan.

Jumladan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash maqsadida, birinchidan, gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish, ikkinchidan, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'rvonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, uchinchidan, "Ayollar daftari" bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish ko'zda tutilgan.

2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha milliy dastur, 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi. Saylov kodeksiga muvofiq ayollarning soni siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida 30 foizini tashkil etishi belgilandi.

Barcha davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining kamida bir nafar o'rinbosarini xotin-qizlar orasidan tayinlash tizimi joriy etildi. Natijada, rahbar ayollar soni 2017 yilda 27 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 33 foizga yetdi. Ayollarning ulushi tadbirkorlik sohasida 37 foiz, siyosiy partiyalarda 47 foiz, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida 46 foiz, tibbiyotda 77 foizni tashkil etmoqda. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 33 foizi, Senat a'zolarining 24 foizi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining 25 foizi ayollardan

iborat. Vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimlarda xotin-qizlar ulushi 2018 yilda 2,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda qariyb ikki barobarga oshdi va 5,7 foizga yetdi. Kattaqo'rg'on shahar, Bo'ston, Olot, Boyovut va Yakkasaroy tumanlarini ayol hokimlar boshqarmoqda. Sud tizimida faoliyat ko'rsatayotgan 181 ayol sudyaning 26 nafari rahbarlik lavozimida mehnat qilib kelmoqda.

Yaratilayotgan imkoniyatlarga qaramasdan davlat fuqarolik xizmatida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarning boshqaruv lavozimlaridagi ulushi esa 27 foizni tashkil etadi. Xotin-qizlarning boshqaruv lavozimlarida ulushini yanada ko'tarish maqsadida Davlat boshqaruvi akademiyasida rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha "Rahbar ayollar maktabi" o'quv kurslari tashkil etildi va har yili zaxiraga olingan xotin-qizlarning 100 nafarini o'qitish yo'lga qo'yildi.

Vatanimiz va xalqimiz oldidagi munosib xizmatlari uchun 17 ayol eng oliy mukofot – "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi. Ilm-fan nufuzini yanada oshirishga katta hissa qo'shgan, yangi ilmiy maktablar yaratgan 12 olim akademik ilmiy unvoniga ega bo'ldi. Oxirgi uch yilning o'zida 463 xotin-qiz fan doktori (DSc), 2816 nafari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'ldi. Jamiyat va davlat hayotida faol, tashabbus ko'rsatgan ayollar bilan bir qatorda farzandlarini barkamol insonlar etib voyaga yetkazgan uy bekalariga ham beriladigan "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi va shu kunga qadar 1451 ayol taqdirlandi.

Bu boradagi ishlarni yanada samarali tashkil etish maqsadida mamlakatimizda amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar ham muhim o'rin tutadi. Mana shu islohotlar fonida Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirishda ayollar salmog'i oshmoqda. Mahalla fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faollari orasidan eng munosiblari "Salohiyatli kadrlar rezervi"ga kiritilmoqda. Ular belgilangan tartibda bir qator faoliyatni amalga oshiradi. Zaxiraga olingan nomzodlar faoliyati qoniqarliligini belgilovchi sektor rahbarlari xulosalari olinadi. Belgilangan tartibda test sinovlari va suhbat bosqichi tashkil etiladi.

Zaxiraga olingan nomzodlarning shaxsiy rivojlanish rejasi shakllantiriladi. Ularning ish faoliyati bilan bog'liq turli tadbirlar, OAVda chiqishlari, maqolalari, o'z ustida ishlashi, ishdan tashqari kitob mutolaasi kabi mezonlar asosida bilim va ko'nikmasi oshirib boriladi. Onlayn malaka oshirish kurslarida ishtirok etadi va maxsus sertifikatga ega bo'ladi. Davlat boshqaruvi akademiyasida bosqichma-bosqich malaka oshiradi. Nomzodlar vazirlik va idoralarning hududiy boshqarmalari rahbarlariga, tegishliligi bo'yicha mahalliy ijroiya hokimiyati rahbarlariga belgilangan reja-grafik asosida dublyor sifatida birlashtiriladi va boshqaruv ko'nikmasi ortadi hamda faoliyati OAVda yoritilib boriladi.

Shu tariqa jamiyatimizning yangi qiyofasi shakllana boradi. Ayol baxtli bo'lsa oilada va jamiyatdagi muhit barqaror bo'ladi. Barqarorlik bor joyda esa ulkan-ulkan marralarni ko'zlab yuksakka intilish mumkin. Bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar samaradorligini

ta'minlashda esa davlat fuqarolik xizmatida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muhokamalarimiz davomida shuni ma'mnuniyat bilan ko'rsatib o'tish lozimki, ayollarimiz huquqlari, ularning huquqiy madaniyatini oshirish borasidagi qilinayotgan keng ko'lamli islohotlar nafaqat davlatimizda balkim butun dunyo miqyosida e'tiborga olinib, himoya qilinib kelinadi. Bunga yaqqol misol tariqasida, Pekinda bo'lib o'tgan 1995-yildagi To'rtinchi Jahon Konferensiyasida muhokama etilgan masalalardan biri – ayollarning bilim olishini ta'minlash va kasbiy mahoratni oshirish masalasi hisoblandi. Bu holatni amalga oshirish ayollarning o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonchini oshirish bilan birga jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faol ishtirok etishini ta'minlashga imkoniyat yaratadi. Har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lish ayollar uchun nashr etilgan turli ma'lumotlarni o'zlashtirishga, zaruriy amaliy malaka hosil qilishga, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga yordam beradi. O'z navbatida ayollarning bunday imkoniyatlarga ega bo'lishi ularning hayotini yaxshilaydi. Shuning uchun ham investitsiyalarni ayollarning ma'lumot olishi va bilimining mukamallashtirishga sarflash maqsadga muvofiqdir, deb topildi.

Ayollarning bilim olish huquqi insonning asosiy huquqlaridan va, eng muhimi, tenglik, taraqqiyot, tinchlik kabi maqsadlarga erishish vositalaridan biridir. Lekin bu huquq har bir kishining shaxsiy huquqi deb hisoblanishi xato bo'lur edi. Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi sur'atlari shu qadar ildamki, muttasil bilim olish muammosini yuzaga keltirmoqda. Kamsitilishlarga yo'l qo'ymay bilim berish nafaqat qizlarga, balki o'g'il bolalarga ham foyda keltiradi va shu bilan pirovardida erkaklar va ayollar orasida teng huquqli munosabatlarni o'rnatishga ko'maklashadi. Bilim olishda tenglik va uni olish imkoni ko'p sonli ayollar hukumat islohotlarining faol ishtirokchilariga aylanishlari uchun zarurdir.⁶

Zamonaviy ayolga shunchaki savodli bo'lish: o'qish, yozish, hisobni bilishi yetarli emas, uning oldida ta'limning sifati, muammosi paydo bo'lib, doim mustaqil ta'lim ustida ishlab, tinimsiz o'z bilimlarini orttirib, chuqurlashtirib borishni talab etadi. Xotin-qizlar orasida savodxonlik ular oilasida farzandlarning sog'lig'ini saqlash, ovqatlanish va ta'lim olishini ta'minlashda qo'l keladi.⁷

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 8-mart "Xalqaro xotin-qizlarimiz bayrami" munosibati bilan o'tkazilgan tantanali marosimda so'zlagan nutqida ham ayollarimizga cheksiz ehtirom va hurmat bildirildi.

"Inson hayoti va jamiyat rivojida muqaddas Ona zoti, munis ayollarimizning beqiyos o'rnini oddiy so'zlar bilan ifoda etish nihoyatda qiyin vazifa. Bugun biz barcha sohalarda marrani juda katta olyapmiz, qancha-qancha ulkan dasturlar, reja va loyihalarni amalga

⁶ Xolmatova M., Muraveva N.M. Yoshlar oilaviy hayot bo'sag'asida. T.: o'zbekiston, 2000. – 64 b

⁷ Egamberdieva T. Ayol va davr. – T.: 1994. - 18 b.

oshiryapmiz. Ular birinchi navbatda onalarimiz, opa-singillarimiz, aziz farzandlarimizning hayot va mehnat sharoitini yaxshilashga qaratilgan. Biz yaxshi tushunamiz – xotin-qizlarning huquq va manfaatlari ta'minlangan jamiyatda albatta tinchlik, adolat, erkinlik va farovonlik bo'ladi. Ayol baxtli bo'lsa, oila va jamiyat ham albatta baxtli bo'ladi.

Barchamiz – Prezidentdan boshlab eng quyi bo'g'indagi rahbar va mutasaddilar, ana shu muhim mezonga amal qilib ishlashimiz zarur. Shundagina xalqimiz ham, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi." –deya ta'kidlaydilar. Prezidentimiz tomonidan Jamiyatning rivojlanishida ayollarimiz ajralsam o'zni haqida fikrlari juda ham o'rinli bo'lib, bu sohada olib borilayotgan qo'shimcha tadqiqotlar ham shuni ko'rsatmoqda: Onalar bilimi yuqori bo'lgan oilalarning iqtisodiy ahvoli yaxshi bo'ladi; onalar bilimi yuqori bo'lgan oilalarda bolalar jinoyati kam sodir bo'ladi; bilimli onalarning farzandlari odatda doimo to'q, yaxshi kiyingan va kamroq kasalga chalinuvchan bo'ladi; bilimli onaning farzandlari fan va texnikaning yangi yo'nalishlarini tezda o'zlashtirib oladi; bilimli ona o'z o'g'il-qizlariga oila qurish, uni parvarishlash, oilaning moddiy ta'minoti haqida ko'proq ma'lumot beradi hamda farzandlariga o'z jismi, salomatligini saqlashni o'rgatadi. Shuning uchun ham bilimli ayollar tug'ish paytida kamroq nobud bo'ladi, ayollar bilimi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning hayotda tanlash imkoniyati shunchalik keng bo'ladi, jamiyat va oilada o'z mavqeini anglash uchun sharoit yarata oladi; bilimli ayollar o'z farzandlarini hayotda o'z o'rnini topishga, bilim olish, kasb tanlash, mutaxassislikka ega bo'lishga yaqindan ko'maklashish imkoniyatiga ega bo'ladi; ayol bilimli bo'lsa, atrofdagi voqea-hodisalarni to'g'ri tahlil qila olish qobiliyati kuchli bo'ladi hamda farzandlariga to'g'ri ma'lumot berish imkoniyatiga ega bo'ladi; oqila ona tarbiya qilgan farzandlarda muomala madaniyati yuksak bo'ladi; bilimli ayollar o'z farzandlarini hayotning murakkabliklariga tayyorlab boradi va hokazolar.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatimizda yuqorida keltirib o'tilayotgan o'zgarishlar bilan bir qatorda, ayollarimizning huquqiy savodxonligini oshirish borasidagi masalalar bo'yicha haligacha kamchiliklarni bartaraf etish borasida oqsoqliklar kuzatilmoqda. Ayniqsa, huquqiy bilimi va axloqiy qarashi past bo'lgan insonlar tomonidan bugungi kungacha ayol degan zot ular nazarida jonsiz bir bo'ysinuvchi buyum, qarshi gapirish, orzu-umid qilish huquqiga ega bo'lmagan ashyo sifatida qarash davom etayotganligi achinish kabi hisni kuchaytirishdan boshqasiga yaramaydi. Qizlarimiz tarbiyasi, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, zamonaviy bilim va hunarlarni egallashi, ish joyiga ega bo'lishi, jamiyatda munosib o'rnini topishiga alohida ahamiyat berishimiz zarur. Mazkur masalalarga samarali yechim sifatida, eng avvalo har bir inson dunyoga kelar ekan u kelajakda porloq inson yoki jamiyat boqimandasi bo'lishi oilasidan olgan tarbiyasi oqibatida shakllanadi, shu sababli birinchidan, asosiy sarmoyani birinchi navbatda oilada qo'llash lozim. Ikkinchidan, shu asnoda bo'g'cha, maktab, kollejlarda xotin-qizlarimiz qadr-qimmatini, sha'nini ulug'ovchi tadbirlar, materiallar orqali ayolning "ona, opa singillarimizning" jamiyat rivojidagi hissasini yetkazish. Uchinchidan, shu g'oyani yo'qlovchi materiallarni OAV vositalari bilan birgalikdagi hamkorlik orqali keng ommaga tatbiq

etish, to'rtinchidan, ayollarni davlat va jamiyat boshqaruvida erkaklar bilan teng asnoda ish o'rinlari, mehnat sharoitiga erishish bo'yicha siyosiy partiyalarning g'oyalari va ishlab chiqilgan dasturlarini keng jamoatchilikka yetkazishni asosiy maqsad qilib olish, va nihoyat, onalik va bolalik muhofazasini kuchaytirish bo'yicha bir qancha islohotlar olib borilishi ishonamanki davlatimiz istiqbolli kelajagi uchun foydadan holi bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Normativ huquqiy hujjatlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (lex.uz)
2. "Jamiyatda huquqiy, madaniyatni yuksaltirish aholi o'rtasida huquqiy-profilaktik chora tadbirlarni kuchaytirish yuzasidan" Prezident farmoni 27/4-375-04-306
3. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" PF-5618
4. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari" to'g'risidagi O'RQ -562-son qarori
5. "Xotin-qizlarni taziyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish" to'g'risida O'RQ -561-son qarori.
6. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida Prezident Farmoni 158 –sonli.

II. Asosiy adabiyotlar:

1. Islom Karimov – "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" 2B-36 .2008-yil.
2. O'zbekistonda hotin-qizlar. Qonun va jamiyat muammolari. -T.: 1999. - 14 b.
3. Xolmatova M., Muraveva N.M. Yoshlar oilaviy hayot bo'sag'asida. T.: o'zbekiston, 2000. – 64 b.
4. Egamberdieva T. Ayol va davr. – T.: 1994. - 18 b.